

12. Bo'luvchilar va karralilar

Yondosh mavzu:
Dam olish

Bo'lish hadlari, butun
va qoldiqli bo'lish



1. O'quvchilar o'zlari yoqtirgan dam olish joyini tanladilar. Qaysi dam olish joyi eng mashhur? Eng katta qiymatga ega bo'lgan ifodani toping.

$$36\,000 : 4 - 7\,200$$

qishloqda

$$8\,400 : 12 + 1\,600$$

tog'da

$$50 \cdot 140 - 4\,800$$

shaharda

$$70 \cdot 40 - 300$$

ko'l bo'yida



2. 12, 18, 28, 34, 42, 60, 64, 76 sonlari orasidan:

- a) juft sonlarni;
- b) 4 ga bo'linadigan sonlarni;
- d) 300 soni bo'linadigan sonlarni;
- e) 60 sonining bo'luvchilarini;
- f) 6 ga karrali sonlarni tanlang.

Agar bir son ikkinchisiga butunicha bo'linsa, u holda birinchi son ikkinchisining karralisi, ikkinchisi esa birinchisining bo'luvchisi deb ataladi.

$$5\,600 : 800 = 7$$

5 600 soni 800 ning karralisi.

800 soni 5 600 sonining bo'luvchisi.



12. Bo'luvchilar va karralilar



3. Topshiriqlarni bajaring va savollarga javob bering.

- a) 12 sonining barcha bo'luvchilarini o'sish tartibida ayting.
- b) 15 soni nechta turli bo'luvchiga ega?
- d) Qaysi sonning bo'luvchilari ko'p: 13 soniningmi yoki 14 soniningmi?
- e) Bu son har qanday sonning bo'luvchisi bo'lishi mumkin. Barcha sonlar qaysi songa bo'linadi?



4. Da'volar to'g'rimi yoki yo'qmi? Tekshiring.

- a) $8\,790 \cdot 34 - 126\,000 : 210 \cdot 100$ soni $(72 - 67) \cdot 12$ ga karrali.
- b) $(1760 - 1280) : 24$ soni $(76\,000 + 35\,000) : (1\,830 + 1870)$ sonining bo'luvchisidir.



5. Matematik amallar yordamida ifodalar tuzing. Ularning qiymatini toping.

- a) 6 709 va 8 912 sonlari yig'indisini 107 marta orttiring.
- b) 637 700 va 287 000 sonlari ayirmasini uch marta kamaytiring.



6. Harflarni amallar tartibiga mos holda joylashtiring. Bu so'z nimani anglatadi?

$$\overset{S}{(845 - 670)} \cdot \overset{Y}{19} + \overset{A}{(1\,009 - 965)} : \overset{O}{4} - \overset{T}{28} \cdot \overset{H}{9}$$

$$\overset{I}{4\,045} : \overset{O}{5} + \overset{M}{429} \cdot \overset{N}{75} - \overset{Y}{26\,100} : \overset{CH}{(729 - 642)}$$



7. Ikki yil oldin Chorvoq dam olish maskanida 2 697 340 kishi dam olgan edi. O'tgan yili ikki yil oldingiga nisbatan 238 450 kishi ko'p kelgan. Joriy yilning bahorida esa o'tgan yili dam olganlarning yarmicha odam dam oldi. Bu yilgi bahorda Chorvoqqa qancha odam kelgan?



12. Bo'luvchilar va karralilar



8. Tenglamalarni yeching.


a) $16\,000 + 45\,000 : z = 19\,000$

b) $32\,800 : (1\,800 - x) = 410$




9. Sxema bo'yicha amallarni bajaring. Ularga mos ifodalar tuzing.

a)



b)



10. Uchta baliqchi 18 ta baliq tutdi va baliq sho'rva pishirishdi. Birinchi baliqchi sho'rva uchun 1 ta, ikkinchisi 3 ta, uchinchisi 5 ta baliq berdi. Shundan so'ng ularda teng miqdorda baliq qoldi. Ularning har biri nechtdan baliq tutgan?



11. Sayyohlar bazasida chodir va kottejlarda yashash mumkin. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching.

		
Avgustda	280	170
Sentabrda	?, 8 marta kam	?, 2 marta kam

?



12. Ifodalarni hisoblang va savollarga javob bering.

Qaysi ifodaning qiymati 52 ga karrali?

Qaysi ifodaning qiymati 9 000 sonining bo'luvchisi bo'ladi?

a) $73 \cdot 605 - 19 \cdot 760 - 501 \cdot (3\,041 - 2\,988)$

b) $1\,070 + 908 \cdot 64 - 85 \cdot (4\,090 - 3\,882) - 201 \cdot 202$